

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT**

2024-yilning 9-oylik davomida jismoniy shaxslardan Agentlikka umumiy hisobda **1326** ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ular hududlar kesimida quyidagicha ko'rinishga ega: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 47 ta; Andijon viloyati – 82 ta; Buxoro viloyati – 56 ta; Jizzax viloyati – 48 ta; Qashqadaryo viloyati – 166 ta; Navoiy viloyati – 51 ta; Namangan viloyati – 55 ta; Samarqand viloyati – 123 ta; Sirdaryo viloyati – 51 ta; Surxondaryo viloyati – 160 ta; Toshkent viloyati – 103 ta; Toshkent shahri – 207 ta; Farg'ona viloyati – 90 ta; Xorazm viloyati – 87 ta.

Agentlikka yo'llangan yuqoridagi murojaatlarning 529 tasi bo'yicha murojaat muallifiga tegishli tushuntirishlar berildi va murojaatlar ijobiy hal etildi. Shuningdek, murojaatlarning 764 tasi Agentlik vakolatiga kirmaganligi sababli, tegishliligi bo'yicha boshqa davlat idoralariga yo'llangan. 12 ta murojaat fuqaro tomonidan takroran yuborilganligi sababli ko'rib chiqilishi tugatilgan. Shu bilan birga 21 ta murojaatlar ish jarayonida.

Ushbu murojaatlar mazmun-mohiyati jihatidan ko'rib chiqilganda, murojaatchilar 246 ta holatda ma'lum bir holatni OAVda yoritib berishni so'ragani, 194 ta holatda OAV harakatidan norozi bo'lib murojaat yo'llagani, 89 ta holatda esa ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlar bo'yicha shikoyat yo'llagani ma'lum bo'ldi.

2024 yil 9-oylik davomida kelib tushgan murojaatlar orasida Agentlik va uning tarkibiy tuzilmalaridagi korrupsiyaviy faktlariga doir murojaatlar mavjud emas.

**Murojaatlar bilan ishlash  
bo'yicha guruh bosh mutaxassis**



**S.Sulaymonov**